


PESHKU TUMAN AXBOROT- KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT- BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

SO‘Z MULKINING SULTONI

(ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 585 YULLIGIGA BAG‘ISHLAB)



BIBLIOGRAFIK SHARH

PESHKU-2026

“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas Sarkarda va arboblarning jasoratini Yoshlar ongiga singdiris, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat Mirziyoyev

Kirish

Imom Buxoriy va Burhoniddin Marg‘inoniy, Iso va Hakim Termiziylar, Maqsud Zamaxshariy va Qaffol Shoshiy, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror Valiy, Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy kabi ko‘plab daholar nomi jahon sivilizasiyasi tarixida oltin harflar bilan bitilgan.

Har qanday davr vahar qanday jamiyatdahan olimu ulamolar, mutafakkiru donishmandlarning o‘rni beqiyosbo‘lgan. Elu yurt o‘zining shunday aziz vabuyuk farzandlari bilan haqli ravishda faxrlangan, ko‘ngli tog‘day ko‘tarilib, g‘ururu iftixorga to‘lgan. Bu hayotiy haqiqatdan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, Allohning nazari tushgan yurtimiz– O‘zbekiston zaminidanazal–azaldan o‘zlarining ilmiy ma‘naviy, ma‘rifiy– falsafiy meroslari bilan jumlai jahonga tanilgan ko‘plab buyuk allomalar va mutafakkirlar etishib chiqib, samarali faoliyat ko‘tsatganlar. Ular aql– zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo‘lgan bebaho asarlariyu buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning diyorumiz, balki jahon ahlining qudratli ma‘naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Bu umumbashariy meros dunyo tamadduni rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lganligi hozirgi vaqtda ilm ahllariga ham, jamoatchilikka ham yaxshi ma‘lum. Taassuflar bo‘lsinki, sobiq tuzum davridagi buyuk allamalarimizga nisbatan bo‘lgan adolatsizliklar va nohaqliklar tufayli ular o‘z maqomlariga yarasha qadr– qimmat ko‘rmay, asarlari ham munosib bahosini topmagan edi.

Binobarin, xalqimiz, keng jamoatchilik u zotlarning olamshumul ahamiyatga molik boy va qimmatli merosidan bebahra bo‘lib keldilar.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan e‘tiboran, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning xalqchil va dono siyosati tufayli, aytish mumkinki, bu buyuk zotlar o‘z yurti, o‘z xalqi bag‘riga qaytib, ilm– fan rivojidagi yuksak maqomlariga yarasha munosib hurmat– e‘tibor topdi. Ularning ibratli hayot yo‘llari va boy ilmiy- ma‘naviy meroslarini har tomonlamachuqur o‘rganib, keng xalq ommasiga etkazish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

BUYUK SHOIR, MUTAFAKKIR VA DAVLAT ARBOBI

Alisher Navoiy turkit tillarning har jihatdan fors tilidan ustun ekanligini isbotlab bergan

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Afg‘onistonning Hirot shahrida tug‘ilgan. Xuroson va Samarqandda tahsil olgan Navoiy temuriylar sultoni Husayn Bayqaro davrida vazirlik qilgan.

U o‘z mablag‘i bilan 40 ta karvonsaroy, 17 ta masjid, 9 ta hammom, 9 ta ko‘prik, 20 ta hovuz qurdirgan.


Uning 30 dan ortiq yirik asari mavjud bo‘lib, ular orasida chag‘atoy turkchasi va qisman fors tilida yozgan yuzlab g‘azallari bor.

1485 yilda Navoiy o‘z ichiga besh dostonni olgan mashhur “Xamsa” asarini yaratgan. U 1501 yilda o‘zi tug‘ilgan Hirot shahrida vafot etgan.

Navoiy turk tillarni yuksak badiiy til sifatida himoya qilgan. U nafaqat Chig‘atoy adabiyotining, balki butun turk adabiyotining yetakchi namoyandalaridan biridir.

Darhaqiqat, Usmonli shoirlari ham uni ustoz sifatida tanib, she‘rlariga naziralar yozishgan. Navoiyning tilning bunyodkorlik kuchidan foydalanib, milliy birlikni o‘rnatishga intilishini ko‘rsatgan asari “Muhokamat ul-lug‘atayn”dir. Navoiy bu asarida turkiy tilining fors tilidan ustunligini ochib berishga harakat qilgan. U bu asari bilan turk tilini adabiy til sifatidan olmagan, balki fors tilida ijod qilgan zamondoshlarini ona tilidan foydalanishga chaqirgan.

Alisher Navoiy asarlari




1. Alisher Navoiy hayoti va ijodi [Matn]: albom /Tuzuvchilar: B. To`xliyev, D. To`xliyeva; ma`sul muharrir Y. Is`hoqov.- Toshkent: Bayoz nashriyoti, 2013.-56 b.-2000 nusxa.- ISBN 978- 9943-4142-4-2 (Muqovada).

Ushbu albom - qo`llanmada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi ixcham tarzda aks ettirilgan. U umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning o`quvchilari, talabalar, o`qituvchilar uchun mo`ljallangan. Undan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan qiziquvchi barcha muxlislar foydalanishlari mumkin.

2. Navoiy, A

Xamsa [Matn]: /A. Navoiy; muharrir V. Rahmonov.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.-496 b.-10000 nusxa. - ISBN 978-9943-27-356-6


Mazkur kitobda Alisher Navoiy "Xamsa" sidagi barcha dostonlarni mazmuni bayon qilingan. Ularda shoir tomonidan tasvirlangan turli voqea – hodisalar aks ettirilgan, faqat kirish qismlar, me`yoridan cho`zilib ketgan manzaralar, monologlar biroz qisqartirilgan. Navoiy dostonlarining ushbu nasriy talqini alloma shoirimizning turkiy she`riyat gultoji hisoblanmish "Xamsa" dostonlarini anglab olishingizga yordam beradi, deb o`ylaymiz.



3. Ochilov, Ergash

Alisher Navoiy [Matn]:/ E. Ochilov.-Toshkent: "O`zbekiston", 2015.-192 b.- 3000 nusxa. - ISBN 978-9943-01-943-0 (Muqovada)



Alisher Navoiy o`zbek adabiy tili va adabiyotiga asos solgan buyuk so`z san`atkoridir. Sharq ijtimoiy –falsafiy, ma`naviy axloqiy tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan zabardast mutafakkir, husayn Bayqaro saltanatining barqarorligi va gullab yashnashini ta`minlagan yirik davlat arbobi, ilm-u fan, adabiyot va san`atning ulkan homiysi bo`lgan mashhur ma`rifatparvar zot sifatida o`zbek tili, tarixi adabiyoti, madaniyati va san`ati rivojida alohida o`rin tutadi.



Risolada bu favqulodda iste`dod sohibining ibratli hayoti, serqirra faoliyati, davlat arbobi va ma`naviyat homiysi, adolatli amaldor va saxovatli inson siymosida amalga oshirgan xayrli va ezgu ishlari, asarlarning badiiy barkamolligi sirlari va shoirlik mahoratining ayrim qit`alari to`g`risida ilmiy-ommabop usulda hikoya qilinadi.

4. Навоий, Алишер

Хазойинул –Маоний [Матн]: (IV Фавойидул-кибар) /
Алишер Навоий.-Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси
нашриёти,1960.-755 б.-10000нуса



5. Навоий, Алишер

Хамса [Матн]: (“Ҳайратул аброр”) / Алишер Навоий.-Тошкент:
Адабиёт ва санъат
нашриёти,1986.-424 б.-20000 нуса

“Хамса” ўзбек адабиётининг қуёши Алишер Навоий (1441-1501) ижодининг юксак чўккисидир. У 1483 йилларда ёзилган бўлиб, унда ватанпарварлик, халқпарварлик, меҳнатсеварлик, пок севига садоқат, дўстлик ва баҳодирлик каби олийжаноб хислатлар энг баланд пардаларда тараннум этилади. Қўлингиздаги ушбу китоб “Хамса”


нинг 500 йиллиги муносабати билан нашр этилмоқда

6. Навоий, Алишер

Хазойинул маоний [Матн]: / Алишер Навоий;
таҳрир ҳайъати А. Қаюмов, А. Рустамов, Н.
Комилов ва бошқалар; Ҳ. Сулаймон нашри асосида
матни лўғат ва изоҳлар билан қайта нашрга
тайёрловчи О. Давлатов -Тошкент: “Тамаддун”
нашриёти, 2011.Ж.III: Бадоеъ ул васат. -740 б.-
10000нуса. - ISBN 978-9943-377-16-5

Алишер Навоийнинг учинчи девон китоби Бадоеъ ул васат деб номланиб, 2011 йилда нашр этилган. Ушбу девонда Ватанга муҳаббат, ишқ, вафо, меҳнатсеварлик, халқпарварлик, дўстлик ва мардлик ғоялари илгари сурилган бўлиб, ушбу китоб ёшларни ватанга муҳаббат, миллий истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялашда ва комил инсон бўлиб етишишида катта аҳамиятга эга.





7. Навоий, Алишер

Хазойинул маоний [Матн]: / Алишер Навоий; таҳрир ҳайъати А. Қаюмов, А. Рустамов, Н. Комилов ва бошқалар; Ҳ. Сулаймон нашри асосида матнни лугат ва изоҳлар билан қайт нашрга тайёрловчи О. Давлатов - Тошкент: "Тамаддун" нашриёти, 2011. Ж.ИВ: Фавойид ул - маоний. -780 б.-10000 нусха. – ISBN 978-9943-377-16-5

Алишер Навоийнинг тўртинчи девон китоби Фавойид ул - маоний деб номланиб, 2011 йилда 10000 нусхада Тамаддун нашриёти томонидан нашр этилган. Ўзбекистон фанлар академиясининг Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи Илмий кенгаши томонидан нашрга тавсия этилган. 2010 йил 27 июлдаги 5-мажлис баённомаси. Ушбу девонда Ватанга муҳаббат, ишқ, вафо, меҳнатсеварлик, халқпарварлик, дўстлик ва мардлик ғоялари илгари сурилган бўлиб, ушбу китоб ёшларни ватанга муҳаббат, миллий истиқлол ғояларига садокат руҳида тарбиялашда ва комил инсон бўлиб етишишида катта аҳамиятга эга.

8. Навоий, Алишер

Мукамал асарлар тўплами [Матн]: 20 томлик / Алишер Навоий; таҳрир ҳайъати К. Яшин ва бошқ.: Текстни тузувчи Ш. Шарипов; Масъул муҳаррир А. Қаюмов. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1987. Ж.И: Бадойиъ ул - бидоя. -724 б.- 7500 нусха.

Ўзбек шеърятининг даҳоси, ғазал мулкининг султони, ўзбек тилининг асосчиси Мир Алишер Навоийнинг 20 томлик мукамал асарлар тўплами Ўзбекистон республикаси "Фан" нашриёти томонидан китобхонларга тақдим этилди. Ушбу китобда Навоийнинг энг сара китоблари китобхонларга тақдим этилди.

9. Навоий дастхати [Матн]: / Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи

Суйима Ғаниева- Тошкент: "Фан" нашриёти, 1991 й.-364 б.- 12200 нусха- ISBN 5-648-01809-6.

Навоий асарлари бизгача моҳир хаттотлар ва хассос наққошлар томонидан китобат қилинган ҳолда етиб келган. Шунингдек, турли савиядаги китоблар ва китобат санъатига мансуб ижодкорлар ҳам шоир асарларини кўплаб кўчиришган. Машхур адибимиз Ойбек Х сулаймонив диссертациясига ёзган тақризда "Ҳозирга қадар навоийнинг ўзининг қўл хати ётопилмаган ва номаълумдир. Ҳамид Сулаймонов ҳам кўп урнинишларига қарамай Навоийнинг қўл хатини топа олмади ва топилиши мумкин эмас деди" 1976 йили Эронда нашр қилинган "Фехрасти девонҳои хаттӣ" номли каталогдаги Навоий асарлари тавсиф қилинган қисми ва унда наъмуна учун берилган шоир дастхатидан бир саҳифанинг микрофильмини олишга муваффақ бўлдик ва биринчи марта уни керакли изоҳлар билан эълон қилдик.



10. Навоий, Алишер

Насойим ул-мухаббат [Матн]: Ҳикоялар ва ҳидоятлар / А. Навоий;
Иккинчи наشري.О. Давлатовнинг насрий баёни.-Тошкент: “O`zbekiston” НМИУ, 2018. –
232. ISBN 978-9943-28-082-3

Мустақилликнинг биринчи йили Алишер Навоий йили , деб эълон қилиниши ҳамда ўша йилдаёқ Алишер Навоий номидаги Давлат мукофоти таъсис этилши ҳам энди озодликка эришган ўзбек халқи учун Навоий ҳурлик озодлик ва ўзлик тимсоли бўлганлигидан гувоҳлик беради. Ўтган йигирма беш йил ичида ҳазрат Навоийнинг қуллиёти икки марта нашр этилди. “Хамса”, “Ҳазойин – ул маоний”, “Насойим ул-мухаббат” нинг янги нашрлари дунё юзини кўрди.

11. Алишер Навоий ғазалларида ҳазил-мутойиба
[Матн]: / тузувчи А. Аъзамов. –Тошкент: Гафур
Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи,
2015.-160 б.3000 нусха. ISBN 978-9943-03-655-0

Ушбу китобга Алишер Навоийнинг “Ҳазойин ул-маъоний” девонларига кирган ғазалларидаги ҳазил-мутойиба руҳидаги байтлар жамланган. Зарур ўринларда байтлар қийин сўзлар луғати ҳамда изоҳлар билан таъминланган. Аруз вазнининг мукамаллиги ва жозибасини намоиш этиш ҳамда байтларни ифодали ўқишни қулайлаштириш мақсадида махсус белгилар воситасида рукн ва хижола ажратилган. Китоб бугунги авлодни буюк шоирнинг табаррук меросидан баҳраманд этишдай хайрли мақсадга хизмат қилади деб умид билдирамиз.



12. Навоий, Алишер



«Лисон-ут-тайр». [Матн]: / Н. Алишер; Сўзбоши, табдил ва
изоҳлар муаллифи Манзар Абдулхайр ва Абдуҳамид Пардаев.-
Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.-544 б.-10000 нусха. –
ISBN 978-9943-20-604-5

Улуғ шоир ва мутафаккир Алишер Навоий асарлари матнини ўрганиш унинг ҳаётлик чоғларидаёқ бошлаб юборилган эди. Бу анъана эндиликда ҳам давом этаётир. Айни маънода ушбу табдилда илк бор шоир асарларининг матний тадқиқ қилинмаган жиҳатлари қайта ўрганиб чиқилган. Энг муҳими, унда улуғ шоирнинг «Лисон-ут-тайр» асари илк бор янги ҳам янгича насрий, ҳам шеърий табдил қилинди. Бу тарз улуғ шоирнинг ушбу фалсафий-тасаввуфий асари моҳиятини соддалаштириб кенг китобхонларга тарғиб қилишда муҳим аҳамият касб этади. Табдил адабиётшунос, тилшунос, шарқшунос, матншунос ва барча мумтоз шеъриятимиз муҳибларига манзур бўлади деган умиддамиз .

13. Мадаев Омонулла

Навоий суҳбатлари [Матн]: / О.Мадаев./ 2-нашри.-
Тошкент: “O`qituvchi” НМИУ, 2018.- 248 б.-5000 нусха.
ISBN 978-9943-22-288-5

Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш, унинг ижодига меросхўр миллат вакили сифатида буюк адибимизнинг асарларидаги бадиийликни, ғояни, фалсафани билишга интилиш ҳар бир ўзбек фарзандининг муқаддас бурчи саналади. Аммо шоир яшаган давр билан бизнинг замонамиз ўртасидаги беш асрдан ортиқ ўтган вақт аксари пайтларда мумтоз адабиёт матнини тушунишда мураккаб фазиятларни вужудга келтиради. “Навоий суҳбатлари”да ана шу мураккабликни нисбатан бартараф қилиш йўлидан борилган. Адиб асарлари мисолида, замондошлари хотираларида қайд этилган аниқ воқеа –ҳодисаларга асосланган ҳолда Алишер Навоийнинг халқига, ватанига, дўстларига бўлган муносабатларини ёритиш орқали муаллиф сиз ўқувчиларни у билан имкон даражасида яқинлаштириш ечимини топишга уринган.



14. Саидбахром Азизов

Алишер Навоий асарларида фалақийёт сирлари [Матн]: / Азизов Саидбахром.- Тошкент: “O`zbekiston” НМИУ, 2018. – 136 б. – нусха. – ISBN 978-9943-28-967-3

Ушбу китобда Алишер Навоий космогоник дунёқараши шаклланишида Улуғбек астрономия мактабининг ўрни, Алишер Навоий асарларида фалақийёт илмига оид малумотлар (астрономик жихозлар, олам моделлари, осмон жисмлари, самовий ҳодисалар), Алишер Навоий асарларидаги астрономик маълумотларнинг манбалари ҳақида сўз боради.

Китоб фан тарихи мутахассислари, олий ўқув юртлири ўқитувчилари, талабалари ва марказий Осиёда астрономия фани тараққиёти билан қизиқувчи барча ўқувчиларга мўлжалланган.

15. Султон, Иззат.

Навоийнинг қалб дафтари [Матн]: / И.Султон; масъул муҳаррир Наим Каримов. -3-тўлдирилган ва тузатилган нашри.-Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2010.-376 б. -500 нусха. - ISBN 978-9943-03-276-7

Бу китоб Алишер Навоий ҳақида шу вақтгача ёзилган асарларидан ўзгача, “ёзувчининг таржимаи ҳоли-даставвал унинг асарларидир”, деган ҳақиқатга амал қилиб, муаллиф шоирнинг адабий мероси орқали унинг ҳаёти ва ижоди ва замондошлари ҳақида хикоя қилади.





16. Махмуд, Муҳаммаджон


Навоий ҳаёти ва ижодига янги қараш [Матн]: Китобда лирик қаҳрамон, ёр, диёр ва таржимаи ҳол масалалари / Муҳаммаджон, Махмуд; масул муҳаррир Х. Ҳомидий. – Тошкент: “MERIYUS” 2015. – 192 б. – 500 нусха. - ISBN 978-9943-988-06-4

Буюк муршид Алишер Навоий бутун ҳаёти ва ижодини Хуросонда фозил, комил жамияту одил, мурувватли давлатни қуришдек жуда улуғ, қийин ишга бағишлади ҳамда уни Ҳусайн Бойқари кўмагида 30-40 йил давомида шароф билан амалга оширди. Муаллиф ушбу рисоласида лирик қаҳрамон. Ёр, диёр ва таржимаи ҳол муаммоларини шоирнинг мазкур олий мақсадлари нуқтаи назаридан ҳал қилади.

Рисола илму фан аҳли, олий ўқув юртларининг филология факультети талаблари ҳамда шоир ҳаёти ва ижодига қизиқувчи кенг китобхонлар оmmasига мўлжалланган.

17. Буюк юрт алломалари [Матн]: / тузувчи ва нашрга тайёрловчи У. Уватов; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тошкент ислом университети, Ислomsунослик илмий-тадқиқот маркази, Имом Бухорий халқаро маркази, Ўзбекистон маърифатпарварлар жамияти. –Тошкент: “O`zbekiston” НМИУ, 2016.-424 б.-3000 нусха ISBN 978-9943-28-702-0

Мазкур китобда ўлкамиздан етишиб чиққан, ислом дини, унинг маърифати, маънавияти, қадриятлари такомилда чинакам ҳал қилувчи роль ўйнаган улуғ алломаларимизнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисидаги қизикарли тадқиқотлар ўрин олган. Ишончли ёзма манбаларга таяниб ёзилган, тарихий фактларга бой, бир-бирини тўлдирувчи, содда тили раво услуби билан ажралиб турувчи мақолаларни ўзида мужассам этган бу тўплам китобхонни бефарқ қолдирмайди.



Hurmatli kitobxonlar! Nizommiddin Mir Alisher Navoiyning tavallud kuniga bag'ishlab tuzilgan ushbu bibliografik sharh keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, ushbu tuzilgan bibliografik sharhdagi kitoblar Peshku tuman Axborot – kutubxona markazi fondida mavjud. Alisher Navoiyning o'lmas ijodini o'rganishda ushbu adabiyotlardan foq dalanishingizni tavsiya etamiz.

Axborot-bibliografiya xizmati